

## **HAMSHIRALARDA SOTSIAL-PSIXOLOGIK KOMPETENTLIK KURSATKICHLARINING NAMOYON ETILISHI**

*Narzulloeva Salomatbonu Sunnatulloevna*

*Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti tadqiqotchisi*

**Annotatsiya** Ushbu maqolada ilmiy adabiyotlarda tasdiqlangan ijtimoiy-psixologik kompetensiya va hamshiralarning ijtimoiy intellekti o'rtasidagi bog'liqlik, hamshiralarning kasbiy faoliyatida muhim bo'lgan ijtimoiy-psixologik kompetensiya ko'rsatkichlari bo'yicha tadqiqotlar yoritilgan. Bugungi kunda ijtimoiy-psixologik kompetensiya va uning yetakchi omillaridan biri ijtimoiy intellekt deb atalmish uyg'unlikni ta'minlovchi dastur ishlab chiqishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy intellekt, ijtimoiy-psixologik kompetensiya, Kommunikativ kompetensiya, rivojlantirish kompetensiyasi, konstruktiv.


### **Демонстрация показателей социально-психологической компетентности медицинских сестер**

**Аннотация** В данной статье освещается корреляционная связь между социально-психологической компетентностью и социальным интеллектом медицинских сестер обоснованный в научной литературе, исследованиями показателей социально-психологической компетентности, имеющих важное значение в профессиональной деятельности медицинских сестер. Сегодня социально-психологической компетентности и ее одного из ведущих факторов направлена на разработку программы, обеспечивающей гармонию так называемого социального интеллекта.

**Ключевые слова:** социальный интеллект, социально-психологическая компетентность, коммуникативная компетентность, развивающая компетентность, конструктив.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Vazirlar Mahkamas tomonidan keyingi yillarda chiqarilayotgan qaror va farmoyishlarda hamshiralarda kasbiy kompetentligi, salohiyati juda yuksak bo'lishi lozimligi ko'rsatilgan. Jumladan, sog'likni saklash sohasini rivojlanishi birinchi navbatda, ushbu jarayonni tashkil etuvchi, boshqaruvchi, nazorat qiluvchi tibbiyot xodimlarining dunyoqarashi va tafakkuridagi o'zgarishlarga ya'ni ularning kasbiy kompetentligiga bevosita bog'liq. Kompetentlik atamasi lotincha «<competo» so'zidan olingan bo'lib erishayapman, munosibman» degan ma'noni anglatadi hamda ma'lum sohadan xabardorligini bilishini bildiradi. «Kompetentsiya» atamasi faoliyatda mujassamlangan xodimning kompetentligi, biror kishi yaxshi xabardor bo'lgan soha yoki masalada insonning amaliy layoqatliligi hamda kasbiy qobiliyatning tizimli rivojlanganlik darajasini anglatadi.

Yuqoridagilarga asoslanib, hamshiralarda kompetentsiyasini quyidagicha sxematik ifoda etish mumkin bo'ladi:



Ras. 1

Ma'lumki, kompetentsiya bilim, ko'nikma, malaka, karashlar, individning qadriyati va shaxsiy sifatlari, kvalifikatsiyaning namoyon bo'lishi yoki ta'sir ko'rsatish qobiliyati bo'lib, XX asrning 60- yillaridan boshlab xorij ilmiy adabiyotlarida, psixologik manbalarda aks eta boshlagan. Dastlab, kompetentsiyalar uch asosiy guruxga ajratiladi: shaxsiyatga doir, kasbiga va faoliyatiga oid. Faoliyat jarayonida ning asosiy vazifasi - bemorlardagi kasallikka hamda psixologik immunitetga oid (tayanch) kompetentsiyalarni shakllantirish va rivojlantirishga yordam berishdan iborat.

Xamshiralar kuyidagi kompetentsiyalar, faoliyat jarayonida shakllantirishi lozim bulgan asosiy tayanch kompetentsiyalar sifatida belgilab berilgan :

- Komunikativ
- Shaxs sifatida
- Shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish;
- Ijtimoiy faol fukarolik;
- Umummadaniy.
- O'z sohasi yangiliklaridan xabardor bo'lish.

Faoliyat jarayonida tibbiyot xodimlarida shakllantirilishi lozim bulgan bu tayanch kompetentsiyalarni ularni sotsial intellekt omillarini shakllantirish bilan parallel ravishda olib borilishi takomillashtirilishi maqsadga muvofik.

Hamshiralarda shakllantirilishi va takomillashtirilishi lozim, deb ko'rsatilgan tayanch kompetentsiyalar kuyidagilardan iborat:

1. Kommunikativ kompetentsiya: o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda kiska, lo'nda, tushunarli hamda ta'sirchan bayon kilish, so'zlarni talaffuz kilishda urg'uni to'g'ri ko'yish, nutkda shevaga xos so'zlarni ishlatmaslik, adabiy til me'yorlariga amal kilish, o'z fikrini imlo va husnixat qoidalariga rioya etgan xolda xatolarsiz bayon kilish;

turli davralarda, katta-kichik yoshdagi notanish insonlar bilan muloqotga kirisha olish, muloqotda o'zidan kattalarga xurmat, kichiklarga izzat ko'rsatish;

vaziyat taqozosiga ko'ra hamkorlikda ishlash jarayonida jamoa va gurux a'zolari fikrini tinglay bilish, hurmat qilish, e'tirozli fikrlarga to'g'ri munosabat bildirish, ular fikrini shakllantirishda o'z ulushini qo'shish.

2. Shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetentsiyasi: shaxs sifatida doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish, ma'naviy, ruxiy va intellektual kamolotga intilishni doimiy hayotiy-ma'naviy extiyojiga aylantirish;

milliy va umuminsoniy kadriyatlarni e'zozlash va ularga amal qilish:

xayoti davomida turli yo'nalishdagi (badiiy, publitsistik, ilmiy, ilmiy-ommabop, fan va texnika, san'at va boshqalarga doir) kitoblarni muntazam o'qish va o'rganish, xulosa chikarish, ibrat olish, tegishli holatlarda ulardan o'z fikrining isboti va dalili sifatida amliyotda foydalana olish; O'z xatti-xarakati, fikr-mulohazalariga tankidiy yondasha olish, o'zini nazorat qila bilish, ogzaki va yozma matnlar mazmuniga tugri baxo bera bilish . Kompetentsiya bilim, ko'nikma, malaka va hayotiy tajribalarning amaliyotdagi tadbiqi sifatida hamshiralalar hayotida, uning shaxs sifatidagi kamolotida katta rol o'ynar ekan, bugun har jihatdan barkamol, ma'naviy yetuk shaxs tarbiyalashda ayni masalaga jiddiy yondashish, bu uchun esa avvalo tibbiyot xodimlarida sotsial intellekt omillarini shakllantirish va rivojlantirish barobarida ularda tayanch kompetentsiyalarni shakllantirish va rivojlantirishga erishish maksadga muvofiq. Shundan anglashiladiki, bugungi ijtimoiy islohotlar davrida olimlarimiz oldida turgan eng muxim va kechiktirilmasdan hal qilinishi lozim bo'lgan vazifalardan biri xam, hamshiralarda kasbiy kompetentligiga ta'sir qiluvchi sotsial intellekt omillarini shakllantirish, tibbiyot xodimlarida sotsial intellekt shakllanishining psixologik mexanizmlarini takomillashtirishdan iboratdir. Hamshiralarda kasbiy mahorati va kompetentligining o'zaro alokadorligi masalasi bir qator pedagogik-psixologik adabiyotlarda ochib berilgan. Bir kator tadqiqotlarda bevosita kasbiy kompetentlik va uning o'ziga xos jihatlari o'rganilgan. Ana shunday tadqiqotlar sirasiga A.K.Markova va B.Nazarovalar tomonidan olib borilgan izlanishlarni kiritish mumkin. O'z tadqiqotlarida A.K.Markova kasbiy kompetentligi kuyidagi tarkibiy asoslardan iborat ekanligini kayd etadi. Ayni paytda

tibbiyot xodimlarining kasbiy kompetentligi uning kasbiy bilimi va malakalari, boshqa bir tomondan kasbiy pozitsiyasi va psixologik sifatlar mutanosibligi bilan baholanishi mumkin. Zero, taniqli psixolog olim A.K.Markova tomonidan to'g'ri ta'kidlanganidek, kasbiy faoliyatda protsessual ko'rsatkichlarining ya'ni u yoki bu natijalarga erishishga olib keluvchi ta'sir vositalari va muhitning roli katta. Tibbiyot xodimlari professionalizmi uning kasbiy faoliyati sharoitida o'zini turlicha namoyon qiladi. Hamshiralarda uchun kasbiy faoliyatning turli sharoitlarda bir tomondan kasb talablariga mos kelishi boshqa bir tomondan esa o'zini kasbiy rivojlantirish mantiqiga rioya qilish, har qanday holatlarda ham ichki psixologik turg'unlikni saklash muhimdir. A.Reshetovanning fikricha, tibbiyot xodimlari kasbiy faoliyati O'rganishga funktsional yondashuv faoliyatini funktsiyalar va funktsional xarakteristikalar ko'rinishida karab chikish tavsiya etiladi. Unga ko'ra, tibbiyot xodimlarilik kasbiga predmetli va pedagogik malakalar, bilimlar asosida yondashuv tasvirlanadi. Binobarin, kasbiy faoliyatning taxlili pedagogik vazifalarni hal etishga yo'naltirilgan tibbiy o'zaro alokador xatti-harakatlarini ajratib ko'rsatadi. xodimlarilarnin

- konstruktiv;
- loyixaviy;
- tashkilotchilik;
- kommunikativ;
- gnoseologik .

Bunda hamshiralarda kasbiy qobiliyatlari, uning tibbiyot xodimlari faoliyatiga, layokati, shahslilik sifatleri ko'rib chikiladi. V.A.Slastenin faoliyat tuzilmasini tadqiq etishda shaxs sifatleri shaxslilik va kasbiy tomonlarga alohida urg'u beradi. Shuningdek, uning psixologik-pedagogik tayyorgarlik mutahassislik bo'yicha metodik tayyorgarlik va maxsus tayyorgarlik mazmunlariga talablarni oshirishga aloxida e'tibor karatadi. Demak, hamshiralarda kasbiy kompetentligining to'liq tuzilmasi motivatsion-yo'naltiruvchi bo'g'in, rivojlantiruvchi, tuzatuvchi korreksion va kasbiy maslahat xarakteriga ega bo'lganligi bilan xarakterlanadi. Shu nuktai nazardan hamshiralarda sotsial-psixologik

kompetentligini o'rganish jarayonida har bir tibbiyot xodimining sotsial psixologik kompetentligi va uning o'ziga xos imkoniyatlarini o'rganish va tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Yukoridagilarga asoslanib, tadqiqotimizda tibbiyot xodimlarining kasbiy kompetentligi, uning sotsial intellektiga ham bog'lik degan mulohazani ilgari surgan xolda ularning sotsial intellekti va sotsial psixologik kompetentligi o'rtasidagi uyg'unlikni o'rganishni maqsad kilib oldik. An'anaviy tarzda hamshiralarda sotsial-psixologik kompetentligini talqin etishda sotsial intellekt, emotsional intellekt va sotsial-psixologik kompetentlik tushunchalar o'zaro alokadorlikda o'rganildi. Tushunchalarning o'zaro mazmunan bog'laganda bir xillikni, ayrim xollarda tafovutlarni aks ettirayotgandek tushuniladi. Ushbu tushunchalar mazmuni hamshiralarda sotsial-psixologik kompetentligini faoliyatidagi rolini belgilashga qo'l keladi. Tibbiyot xodimlar sotsial-psixologik kompetentligini tadqiq etish dasturidan kutilayotgan g'oyaning tub zamirida hamshiraning kasbiy faoliyati va kasbiy kompetentligini yukori natijalarga erishishiga yo'naltirishini ta'minlashdan iborat. Biz sotsial-psixologik kompetentlikka doir izlanishlarga tayanib hamshiralarda sotsial-psixologik kompetentlik omillarini belgilovchi mezonlar majmuasini quyidagilarga ajratdik.

1. Kognitiv;

1.1. Insonlar koidalarini bilish; xakida, o'zga insonlarni tushunishning maxsus

1.2. Sotsial xotira-insonlarning kiyofasi, ismini o'zlashtirishga yo'naltirilgan xotira;

1.3. Sotsial intuitsiya -insonlarning kayfiyatini, tuyg'ularini, xatti- xarakatlarini tushunish motivi, sotsial mazmundagi xulq-atvorni mos tarzda kuzatuvchanlik kobiliyati;

1.4. Sotsial voqelikni bashorat qila olish-shaxsiy xatti-harakatlari rejasini shakllantirish, o'zining faoliyatini jiplashtirishi, shaxsiy faoliyatini boshqalar ko'zi bilan ko'ra olishi va foydalanilmagan mukobil imkoniyatlar orqali baholash.

2. Emotsional;

2.1. Sotsial ifodalalilik sezgirlik, emotsional nazorat o'rnatish; emotsional ifodalilik, emotsional

2.2. Birgalikda qayg'urish o'zga insonlarning holatiga kira olish, O'zini boshqalar o'rniga qo'ya olishi qobiliyati.

2.3. O'z-o'zini tartibga solish kobiliyati kayfiyatlarini tartibga solish ukuvi. o'zining emotsiyasi va

3. Xulkiy;

3.1. Sotsial idrok-suhbatdoshni tinglash malakasi, hazil-mutoyiban tushunish;

3.2. Sotsial o'zaro ta'sirlashuv hamkorlikda ishlashga shaylik va kobiliyatlilik, o'zaro jamoaviy ta'sirlashuvga qobiliyatlilik;

3.3. Sotsial moslashuvchanlik tushuntira olish va boshkalarni ishontira olish ukuvi, o'zga kishilar bilan chiqishib ketish kobiliyati, atrofdagilar bilan munosabatlarda samimiylikning namoyon etilishi. Demak, yuqoridagilarga asoslanib shuni aytish mumkinki, hamshiralarda sotsial-psixologik kompetentligining namoyon etilishi, xar bir tibbiyot xodimida o'ziga xos tarzda shakllangan sotsil intellekt, emotsional intellekt, shaxs xususiyatlari, kommunikativ kompetentlik va ijtimoiy identifikatsiya kabi omillarga bevosita bog'liqligi haqidagi goyalarimiz o'z tasdig'ini topdi. Bu borada sotsial-psixologik kompetentlik, eng avvalo, kasbiy faoliyati samaradorligini belgilashga va shaxs barkamolligini ta'minlashga xizmat qilishi tayin. Zero, mazkur muammo doirasida to'plangan fenomenologik ma'lumotlar alohida ahamiyatga ega bo'lib, unda kasbiy kompetentlik talablariga mos ravishda hamshiralarda sotsial intellekt va sotsial-psixologik kompetentlikni o'zaro boglikligini aniqlash uslublari haqida navbatdagi paragrafda bayon kilinadi.

**Xulosa** Sotsial-psixologik kompetentlik va sotsial intellekt va o'rtasidagi korelyatsion munosabatlarning ilmiy adabiyotlarda yoritilishi, hamshiralarda kasbiy faoliyatida muhim bo'lgan sotsial-psixologik kompetentlik ko'rsatkichlarini tadqiq qilish mazkur bobning maksadi kilib qo'yilgan edi. Olib borilgan tahlillar natijasi bugungi kunda sotsial-psixologik kompetentlik va uning yetakchi omillaridan biri sanalmish sotsial intellekt uyg'unligini taminlovchi dasturni ishlab chikish va amaliyotga qo'llashga bo'lgan talab va ehtiyojning mavjudligini yana bir tasdikladi.

Yukoridagilarga asoslanib, fikr- mulohazalarni umumlashtirgan holda tibbiyot xodimlari sotsial-psixologik kompetentligi va uning omillarini tadqiq qilish bo'yicha quyidagilar aniklandi:

1. Tibbiyot xodimlari sotsial-psixologik kompetentligini tadqiq etishda ularning sotsial intellektiga murojaat qilish juda ham zarurdir. Aytish mumkinki, hamshiralarda sotsial-psixologik kompetentligi va sotsial intellekti o'rtasida ijobiy bog'lanishlar faoliyat jarayonida muxim, ammo ular to'laqonli ko'rinishga ega emas ekan. Fakat beshta mezon bo'yicha sotsial-psixologik kompetentlik sifatlari bilan sotsial intellekt o'rtasidagi to'g'ri ichki munosabat shakllangan

2. Sotsial-psixologik kompetentlikni xarakterlovchi psixologik jixatlar qatoriga sotsial intellektni ko'shish mumkin. Bu esa hamshiralarda sotsial-psixologik kompetentligining kasbiy kamolotdagi holatini yanada chukurroq tushunish imkonini berdi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.**

1. Slastenin V.A. Psixologiya proffesional'nogo mejlichnostnogo obsheniya /V.A.Slstenin/ucheb.posobiye dlya studentov vuzov.. – M.: Akademiya, 2001. – 576 s.

2. Smirnova N.L. Issledovaniye implitsitnykh kontseptsiy intellekta// Psixologiya lichnosti v usloviyax sotsial'nykh izmeneniy. – M., 1993. – S.85-103.

3. Sobirova D.A. Tibbiyot xodimlari kasbiy kompetentligining psixologik asoslari. Monografiya – Buxoro. “Durdona” 2020 – 248 b.

4. Sobirova D.A. Tibbiyot xodimlari sotsial intellekti ko'rsatkichlari namoyon etilishining gender xususiyatlari // “Zamonaviy ta'lim” ilmiy-ommabop jurnali Toshkent: 2019. – № 2. – B. 9-18.

5. Sobirova D.A. Kasbiy kompetentlik diagnostikasi// Psixologiya ilmiy jurnali. 4-son. – Buxoro, 2011. – B. 70-85.

6. Spenser Layl M., Spenser Sayn M. Kompetentsii. Modeli maksimal'noy effektivnosti raboty. Per. s. angl. M.Yakovenko. – M.: HIPPO, 2005. – 371 s.

7. Stolin V.V. Samosoznaniye lichnosti. – M.: MGU, 1983. – 288 s.

8. Subetto A.I. Ontologiya epistemologiya kompetentnostnogo podxoda, klassifikatsiya kvalimetriya kompetentsiy. – M.: Issled. Sentr problem kachestva podgotovki spetsialistov, 2006. – S. 48.